

Genomika va bioinformatika markazi olimlarining COVID-19ga qarshi vaksinasi JSST nomzod vaksinalar ro'yxatiga kirdi

O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan SARS-Cov-2ning oqsil bo'lagining uch sohasi: pcDNA3. 1 (+) plazmidasiga qo'yilgan NTD, RBD va HR1-HR2 vaksinasini ishlab chiqildi. Markaz olimlarining mazkur vaksinasi Jahan sog'lioni saqlash tashkilotining nomzod vaksinalar ro'yxatiga kiritildi. Hozirda vaksina klinik oldi sinovlaridan o'tmoqda.



JSSTning ma'lumotlar bazasi COVID-19ga qarshi vaksina-nomzodlari to'g'risida to'liq ma'lumotlarni yig'ib boradi. Mazkur baza muntazam ravishda — haftasiga ikki marta yangilanadi. Unda COVID-19ga qarshi nomzod-vaksinalarning klinik va klinik oldi jadvali keltirilgan bo'lib, nomzod-vaksinalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Har bir vaksinaning 1-faza, 2-faza va 3-faza sinovlari kuzatiladi. Vaksinalarning xavfsizligi va samaradorligi to'g'risidagi ilmiy maqolalarga havolalar beriladi. Shuningdek, bu baza har bir nomzod-vaksinaning asosiy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida mazkur platforma orqali COVID-19 qarshi yaratilayotgan vaksinalar turli kriteriyalar, xususan, vaksina platformasi, vaksinatsiya grafigi, qo'llash usuli, ishlab chiqaruvchisi, sinov fazasi, klinik natijalar bo'yicha tasniflangan.

ma'lumot o'rnida: JSSTning 16-apreldagi ma'lumotlariga ko'ra, 88 ta vaksinaga klinik sinovlardan o'tishga ruxsat berilgan, 184 ta vaksina klinik oldi sinovlari bosqichida turibdi. 184 tadan 16 tasi DNK vaksinalardir.